TA’LIMNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAŞ ŞAROITIDA BÖLAJAK TARIX ÖQITUVÇILARINI TAYYORLAŞ: ME’YORIY ASOSLAR, XORIJIY TAJRIBA VA MUAMMOLAR

Insopov Jamşid Abdusamadoviç,
Termiz davlat pedagogika instituti tadqiqotçisi
DOI: 10.67620/yoshlarvailm.0340014

Annotatsiya: Maqolada ta’limni raqamli transformatsiyalaş jarayonining bölajak tarix öqituvçilarini tayyorlaş tizimiga ta’siri tahlil qilingan. “Raqamli şaklga ötkaziş”, “raqamlaştiriş” va “raqamli transformatsiya” tuşunçalari farqlanib, Özbekiston Respublikasida ta’limni raqamlaştirişning me’yoriy-huquqiy asoslari hamda pedagoglarning raqamli kompetensiyasiga oid xalqaro ramkalar qiyosiy örganilgan. Termiz davlat pedagogika institutining “Tarix” ta’lim yönalişi böyiça işçi öquv rejasi misolida raqamli texnologiyalar va tarix öqitiş metodikasining bir-biridan ajralgan holda öqitilişi muammosi asoslangan va uning sabablari “Baliq skeleti” diagrammasi orqali tizimlaştirilgan.
Kalit sözlar: raqamli transformatsiya, bölajak tarix öqituvçisi, kasbiy-metodik tayyorgarlik, raqamli kompetensiya, DigCompEdu, öquv reja, SWOT-tahlil.
Аннотация: В статье анализируется влияние цифровой трансформации образования на систему подготовки будущих учителей истории. Разграничены понятия «оцифровка», «цифровизация» и «цифровая трансформация», рассмотрены нормативно-правовые основы цифровизации образования в Республике Узбекистан, а также проведён сравнительный анализ международных рамок цифровой компетентности педагогов. На примере рабочего учебного плана направления «История» Термезского государственного педагогического института обоснована проблема разобщённого преподавания цифровых технологий и методики преподавания истории, причины которой систематизированы с помощью диаграммы «рыбий скелет».
Ключевые слова: цифровая трансформация, будущий учитель истории, профессионально-методическая подготовка, цифровая компетентность, DigCompEdu, учебный план, SWOT-анализ.
Abstract. The article analyses the impact of the digital transformation of education on the training of pre-service history teachers. The concepts of digitization, digitalization and digital transformation are distinguished; the legal and regulatory framework for the digitalization of education in the Republic of Uzbekistan is examined, and international frameworks of educators’ digital competence are compared. Using the working curriculum of the History programme at Termez State Pedagogical Institute as an example, the article substantiates the problem of teaching digital technologies separately from history teaching methodology and systematises its causes by means of a fishbone diagram.
Keywords: digital transformation, pre-service history teacher, professional and methodological training, digital competence, DigCompEdu, curriculum, SWOT analysis.

Kiriş

Sönggi ön yillikda ta'lim tizimlari texnik jihozlaş bosqiçidan ta'limning maqsad, mazmun, metod va baholaş tizimini raqamli muhit imkoniyatlaridan kelib çiqib yaxlit qayta loyihalaş bosqiçiga ötmoqda. 2020-yildagi pandemiya davridagi majburiy masofaviy ta'lim tajribasi ta'lim sifati birinçi navbatda texnologiyaga emas, balki öqituvçining pedagogik loyihalaş salohiyatiga boğliq ekanini körsatdi [6]. 2022-yildan boşlab generativ sun'iy intellekt vositalarining ommaviy tarqalişi esa bu masalani yanada keskinlaştirdi. YUNESKO bu borada ta'lim va ilmiy tadqiqotlarda generativ sun'iy intellektdan foydalaniş böyiça tavsiyanoma e'lon qildi [13]. Tarix fani uçun mazkur özgarişlar ikki tomonlama ahamiyatga ega. Bir tomondan, raqamli arxivlar, virtual muzeylar va interaktiv xaritalar tarixiy manbalar bilan işlaş imkoniyatlarini kengaytiradi. Ikkinçi tomondan, internetda soxta "tarixiy" matnlar, uydirma iqtiboslar va sun'iy intellekt yaratgan noaniq ma'lumotlar tez tarqalmoqda. Stenford universiteti tadqiqotçilari öquvçi va talabalarning aksariyati internetdagi axborotning manbasi, muallifi va maqsadini aniqlaşda qiyinçilikka duç kelişini körsatgan [16]. Demak, bölajak tarix öqituvçisining kasbiy tayyorgarligi raqamli transformatsiya talablari nuqtai nazaridan qayta körib çiqilişi zarur. Mamlakatimizda ham bu masala davlat siyosati darajasida kötarilgan. Ta'lim tizimini raqamlaştiriş "Raqamli Özbekiston - 2030" strategiyasining tarkibiy qismiga aylandi [3], oliy ta'limni kredit-modul tizimiga ötkaziş esa talabalarning mustaqil ta'limi hajmini oşirib, uni sifatli raqamli resurslar bilan ta'minlaşni taqozo etmoqda [2]. Şu bilan birga, tarix öqituvçisini tayyorlaşga oid ilmiy-metodik işlanmalar hali raqamli transformatsiya talablariga töliq moslaştirilmagan. Bu holat masalani maxsus tadqiq etiş zarurligini körsatadi. Maqolaning maqsadi ta'limni raqamli transformatsiyalaş şaroitida bölajak tarix öqituvçilarini tayyorlaşning me'yoriy asoslari va xorijiy tajribasini tahlil qiliş hamda real öquv reja misolida mavjud muammolarni aniqlaşdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

"Raqamli transformatsiya" atamasi E.Stolterman va A.Fors tomonidan raqamli texnologiyalar inson hayotining barça jabhalarida keltirib çiqaradigan özgarişlar sifatida talqin qilingan [12]. G.Vial bu jarayonni axborot, hisoblaş, kommunikatsiya va tarmoq texnologiyalari uyğunligi orqali obyektning xususiyatlarida sezilarli özgarişlar yuz berişi deb ta'riflagan [15]. Ta'lim sohasiga tatbiqan A.Yu.Uvarov va I.D.Frumin tahriri ostidagi monografiyada raqamli transformatsiya öqitişning rejalaştirilgan natijalari, mazmuni, metodlari, şakllari va baholaş tizimini raqamli muhitda yangilaş sifatida qaralgan va uni texnik jihozlaş bilan tenglaştiriş xato ekani ta'kidlangan [17].

Öqituvçining raqamli kompetensiyasi xalqaro miqyosda bir neça ramka orqali tavsiflanadi. YUNESKOning öqituvçilar uçun AKT kompetensiyalari ramkasida öqituvçi faoliyatining 6 jihati uç darajada tavsiflangan [14], Yevropa Ittifoqining DigCompEdu ramkasida esa 6 soha böyiça 22 kompetensiya ajratilgan [11]. Mamlakatimizda ta'limni axborotlaştiriş masalalari U.Ş.Begimqulov [8], A.A.Abduqodirov va A.X.Pardayev [7] tadqiqotlarida, tarix öqitiş metodikasining nazariy asoslari esa M.T.Studenikin [18], Ye.Ye.Vyazemskiy va O.Yu.Strelova [19] işlarida yoritilgan. Biroq mazkur işlarda raqamli kompetensiya va tarix öqitiş metodikasi, asosan, alohida-alohida körib çiqiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda me'yoriy-huquqiy hujjatlar va ilmiy adabiyotlarni tahlil qiliş, qiyosiy tahlil, umumlaştiriş, öquv rejani kontent-tahlil qiliş va SWOT-tahlil usullaridan foydalanildi. Muammoning sabablarini tizimlaştiriş uçun Isikava diagrammasidan ("Baliq skeleti") foydalanildi. Empirik material sifatida Termiz davlat pedagogika institutining 60111100 - Tarix ta'lim yönalişi böyiça 2026/2027-öquv yili işçi öquv rejasi olindi [9].

Tahlil va natijalar

Tuşunçalarni farqlaş. Tahlil "raqamli şaklga ötkaziş", "raqamlaştiriş" va "raqamli transformatsiya" tuşunçalarini ketma-ket bosqiçlar sifatida farqlaş zarurligini körsatdi. Birinçisi axborot taşuvçisining özgarişini, masalan, darslik yoki arxiv hujjatining skanerlanişini anglatadi. Ikkinçisi alohida jarayonlarni raqamli vositalar bilan bajarişni, masalan, testni öquv platformasida ötkazişni bildiradi. Uçinçisi esa ta'limning maqsad, mazmun, metod va baholaş tizimini yaxlit yangilaşni nazarda tutadi. Tarix darsida taqdimot slaydiga köçirilgan ma'ruza matni öqitiş metodikasini özgartirmaydi. Metodik özgariş öquvçining manba bilan mustaqil işlaşi, uni tanqidiy baholaşi va turli manbalarni qiyoslab xulosa çiqarişida namoyon böladi.

Me'yoriy asoslar. Mamlakatimizda ta'limni raqamlaştiriş izçil davlat siyosati sifatida olib borilmoqda. "Ta'lim töğrisida"gi Qonunda masofaviy ta'lim ta'lim şakllaridan biri sifatida belgilandi [1]. Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgaça rivojlantiriş konsepsiyasida kredit-modul tizimiga ötiş va raqamli texnologiyalarni joriy etiş vazifalari qöyildi [2]. "Raqamli Özbekiston - 2030" strategiyasida esa ta'limni raqamlaştiriş kompleks transformatsiyaning tarkibiy qismi sifatida qaraldi [3]. Pedagog kadrlar tayyorlaşga oid PQ-3289-son qaror [4] hamda "Özbekiston - 2030" strategiyasi [5] ham pedagoglar malakasini oşirişni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Biroq bu hujjatlardagi talablar umumiy xarakterga ega bölib, ularni tarix öqitiş metodikasi tiliga "tarjima qiliş" pedagogika fanining vazifasi bölib qoladi.

Xorijiy tajriba. Xalqaro ramkalar qiyosiy tahlili natijalari 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval


Pedagoglarning raqamli kompetensiyasiga oid xalqaro ramkalarning qiyosiy tahlili

Ramka	Tuzilmasi	Kuçli tomoni	Tarix öqituvçisini tayyorlaş uçun çeklovi
YUNESKO AKT CFT (2018)	6 jihat, 3 daraja	Ta'lim siyosati va pedagogika bilan boğliqlik	Fanga xos metodik jihatlar aks etmagan
DigCompEdu (2017)	6 soha, 22	Batafsil tavsif; öquvçilar raqamli kompetensiyasiga e'tibor	Tarixiy bilimning öziga xosligi hisobga olinmagan
ISTE Standards for Educators (2017)	7 rol	Öqituvçining faol kasbiy pozitsiyasi	Fanga xos jihatlar umumiy
YUNESKO AI CFT (2024)	5 yönaliş, 3 daraja	Sun'iy intellekt etikasi va pedagogikasi	Amaliy tatbiq tajribasi hali töplanmoqda

Jadvaldan körinib turibdiki, xalqaro ramkalar umumpedagogik xarakterga ega va tarix öqituvçisini tayyorlaşda fanga xos metodik mazmun bilan töldirilişi lozim. Kanada (P.Seyksas rahbarligidagi “Tarixiy tafakkur” loyihasi) va Finlyandiya (tadqiqotga asoslangan öqituvçi tayyorlaş) tajribasi bu mazmunni tarixiy tafakkurni öqitiş va refleksiv amaliyot orqali şakllantiriş mumkinligini körsatadi [10].

Öquv reja tahlili. Termiz davlat pedagogika instituti öquv rejasida raqamli-metodik tayyorgarlikka xizmat qila oladigan fanlar turli kurslarga tarqalgan: “Mediasavodxonlik va axborot madaniyati” (1-kurs), “Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qöllaş” (2-kurs, tanlov), “Tarix öqitiş metodikasi” (2-kurs, 4-semestr, 4 kredit), “Manbaşunoslik” (3-kurs), “Tarixiy informatika” (4-kurs, tanlov) [9]. Ular örtasida raqamli-metodik mazmun böyiça izçil boğliqlik körsatilmagan. Şu bilan birga, öquv rejada 3-8-semestrlarda 4+2 tartibidagi pedagogik amaliyot va 5-8-semestrlarda amaliyotning tarix öqitiş metodikasi bilan integratsiyasi nazarda tutilgan. Bu muammoni hal qiliş uçun muhim tayanç hisoblanadi.

Muammo sabablari. Tahlil natijasida aniqlangan sabablar 1-rasmda “Baliq skeleti” diagrammasi körinişida tizimlaştirildi.



1-rasm. Raqamli muhitda metodik kompetentlikning yetarli rivojlanmasligi sabablari (muallif işlanmasi)

Bölajak tarix öqituvçisiga qöyiladigan yangi talablar. Tahlil raqamli transformatsiya bölajak tarix öqituvçisini tayyorlaşga beş yönalişda ta’sir körsatişini aniqlaş imkonini berdi. Birinçisi öqituvçi rolining özgarişi bilan boğliq: axborot yetkazuvçidan ta’lim muhitini loyihalovçi va öquvçilarning axborot bilan işlaşini yönaltiruvçiga ötiş talab etiladi. Ikkinçisi ta’lim oluvçilarning özgargan tavsifi bilan boğliq: yoşlar raqamli vositalardan erkin foydalansa-da, ularning axborotni tanqidiy baholaş könikmasi öz-özidan şakllanmaydi [16]. Uçinçisi ta’lim muhitining murakkablaşuvi bölib, unga öquv platformalari, raqamli arxivlar, virtual muzeylar va interaktiv xaritalar kiradi. Törtinçisi baholaş tizimi bilan boğliq: tarixiy tafakkurni oddiy

test topşiriqlari bilan tòliq baholab bölmaydi, şu sababli raqamli baholaş vositalarini tarix ta'limi maqsadlariga moslaştiriş zarur. Beşinçisi uzluksiz kasbiy rivojlaniş bilan boğliq bölib, texnologiyalar tez yangilanayotgan şaroitda bölajak öqituvçida yangi vositani mustaqil özlaştiriş va uni pedagogik nuqtai nazardan baholaş qobiliyatini şakllantirişni talab etadi.

SWOT-tahlil. Me'yoriy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar va öquv reja tahlili asosida ötkazilgan SWOT-tahlil quyidagi manzarani berdi. Kuçli tomonlar qatorida ta'limni raqamlaştirişning davlat siyosati bilan qöllab-quvvatlanişi, kredit-modul tizimiga ötiş natijasida mustaqil ta'limning kengayişi va öquv rejada 4+2 tartibidagi amaliyotning mavjudligini körsatiş mumkin. Zaif tomonlar raqamli vositalarning köpinça axborotni namoyiş qiliş bilan çeklangan holda qöllanişi, raqamli texnologiyalar va tarix öqitiş metodikasining alohida öqitilişi hamda özbek tilidagi raqamli tarixiy resurslarning metodik jihatdan tizimlaştirilmaganligida namoyon böladi. Imkoniyatlar sifatida xalqaro raqamli arxivlar va oçiq ta'lim resurslarining kengayişini, tahdidlar sifatida esa raqamli tengsizlik, tarixiy axborotning soxtalaştirilişi va sun'iy intellektdan nazoratsiz foydalanişni qayd etiş lozim. Körinib turibdiki, taşqi şart-şaroitlar asosan yaratilgan, asosiy muammolar esa içki, ya'ni metodik tusga ega.

Diagrammadan körinib turibdiki, sabablar mazmun, metod, resurs, baholaş, öqituvçi namunasi va amaliyot bilan boğliq olti guruhga ajraladi. Ularning aksariyati texnik emas, balki metodik xarakterga ega. Bu esa muammoni qöşimça texnika bilan emas, balki tayyorlaş mazmuni va metodikasini takomillaştiriş orqali hal qiliş kerakligini körsatadi.

Xulosa

Ötkazilgan tahlil quyidagi xulosalarga keliş imkonini berdi. Birinçidan, ta'limning raqamli transformatsiyasi texnik jihozlaşdan farqli ravişda tarix öqitişning maqsad, mazmun, metod va baholaş tizimini yaxlit yangilaşni talab etadi. Ikkinçidan, mamlakatimizda bu jarayonning me'yoriy asoslari yaratilgan, ammo ularni tarix öqituvçisini tayyorlaş amaliyotiga tatbiq etiş maxsus metodik işlanmalarni taqozo etadi. Uçinçidan, xalqaro ramkalarni tarixiy tafakkur nazariyasi asosida fanga xos mazmun bilan boyitiş lozim. Törtinçidan, öquv reja tahlili raqamli texnologiyalar va tarix öqitiş metodikasining ajralgan holda öqitilişini tasdiqladi.

Olingan natijalar xorijiy tadqiqotçilarning xulosalari bilan mos keladi. A.Yu. Uvarov va I.D.Frumin ham raqamli infratuzilmaning mavjudligi öz-özidan öqitiş amaliyotini özgartirmasligini, hal qiluvçi omil öqituvçining tayyorgarligi ekanini ta'kidlagan [17]. Bizning tahlilimiz bu xulosani tarix öqituvçisini tayyorlaş misolida va real öquv reja materialida aniqlaştiradi.

Taklif sifatida öquv rejadagi raqamli-metodik tayyorgarlikka xizmat qiluvçi fanlarni "Tarix öqitiş metodikasi" fani atrofida vertikal integratsiya qiliş va bu jarayonni 4+2 tartibidagi pedagogik amaliyot bilan boğlaş tavsiya etiladi. Bu yönalişdagi metodika keyingi tadqiqotlarimizda işlab çiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Özbekiston Respublikasining “Ta’lim töğrisida”gi qonuni. 2020.
2. Özbekiston Respublikasi Prezidentining “Özbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgaça rivojlantiriş konsepsiyasini tasdiqlaş töğrisida”gi farmoni. 2019.
3. Özbekiston Respublikasi Prezidentining “’Raqamli Özbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlaş va uni samarali amalga oşiriş çora-tadbirlari töğrisida”gi farmoni.2020.
4. Özbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagog kadrlarni tayyorlaş, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlaş va ularning malakasini oşiriş tizimini yanada takomillaştiriş çora-tadbirlari töğrisida”gi qarori. 2017.
5. Özbekiston Respublikasi Prezidentining “Özbekiston – 2030” strategiyasi töğrisida”gi farmoni. 2023.
6. Hodges C., Moore S., Lockee B., Trust T., Bond A. The Difference Between Emergency Remote Teaching and Online Learning. EDUCAUSE Review. 2020.
7. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali öqitiş nazariyasi va amaliyoti. Toşkent: Fan, 2009.
8. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlaştirişni taşkil etiş va boşqariş nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. d-ri ... diss. avtoref. Toşkent, 2007.
9. Tarix ta’lim yönalişi böyiça işçi öquv reja (2026/2027-öquv yili). Termiz davlat pedagogika instituti. Termiz, 2026.
10. Seixas P., Morton T. The Big Six Historical Thinking Concepts. Toronto: Nelson Education, 2013.
11. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. by Y.Punie. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.
12. Stolterman E., Fors A.C. Information Technology and the Good Life. Information Systems Research: Relevant Theory and Informed Practice Boston: Springer, 2004.
13. UNESCO. Guidance for generative AI in education and research. Paris: UNESCO, 2023.
14. UNESCO ICT Competency Framework for Teachers. Version 3. Paris: UNESCO, 2018.
15. Vial G. Understanding digital transformation: A review and a research agenda. The Journal of Strategic Information Systems, 2019.
16. Wineburg S., McGrew S., Breakstone J., Ortega T. Evaluating Information: The Cornerstone of Civic Online Reasoning. Stanford: Stanford History Education Group, 2016.
17. Трудности и перспективы цифровой трансформации образования. Под ред. А.Ю.Уварова, И.Д.Фрумина. – М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2019.
18. Студеникин М.Т. Методика преподавания истории в школе. М.: Гуманитарный изд. центр ВЛАДОС, 2000.
19. Вяземский Е.Е., Стрелова О.Ю. Теория и методика преподавания истории: Учебник для студ. высш. учеб. заведений. М.: Гуманитарный изд. центр ВЛАДОС, 2003.